

## **GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHINING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI**

**Shukurov Alisher Ne’matullaevich**

Mustaqil izlanuvchi

[a.shukurov@agro.uz](mailto:a.shukurov@agro.uz)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada global iqlim o‘zgarishining oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish haqida aytiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Agroekologik, resurs, global, emessiya, agrotexlogiya, divertifikatsiya, ekvivalent, bug‘lanish, investitsiya, irrigatsiya, iqlim inqirozi.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье рассматривается влияние глобального изменения климата на продовольственную безопасность. Также говорится о стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан и рациональном использовании природных ресурсов и охране окружающей среды.*

**Ключевые слова:** *агроэкология, ресурс, глобальный, выбросы, агротехнологии, дивертификация, эквивалент, испарение, инвестиции, ирригация, климатический кризис.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the impact of global climate change on food security. It is also said about the strategy of agricultural development of the Republic of Uzbekistan and the rational use of Natural Resources and the protection of the environment.*

**Keywords:** *agroecological, resource, global, emessionary, agrotechlogia, divertification, equivalent, evaporation, investment, irrigation, climate crisis.*

### **KIRISH**

Iqlim o‘zgarishi va agroekologik muammolarning ortiq borishi keng tarqalayotgan global muammolardan biri bo‘lmoqda. Buning natijasida yana bir qancha global muammolar, jumladan, oziq-ovqat inqirozi vujudga kelish xavfi ortib bormoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda yer sayyorasida global isish, kuchli shamol, qurg‘oqchilik, suv toshqinlari va yong‘inlar yanada ko‘proq sodir bo‘la boshladi, muzliklar erishi kuchaydi. Bu kabi iqlim o‘zgarishlari bir qator salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Shuningdek, harorat ko'tarilishi natijasida suvning bug'lanish koeffitsenti oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga ta'sir etmoqda. Ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog'ingarchilik bo'lmagan kunlar soni ko'paymoqda. Tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg'oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko'rsatkichlari tushib ketmoqda. Atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda. Isish va sovish kabi anomal hodisalarning o'zgarishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishiga olib kelayapti.

Dunyo eng yomon iqlim inqirozida deyarli 2 milliard ko'proq odamni to'yib ovqatlanmaslik yoki ochlikka olib kelishi mumkin bo'lgan tez o'sib borayotgan oziq-ovqat narxlarining yangi davriga duch kelmoqda, ammo klasterlar, fermerlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar bo'sh o'tirishmayapti iqlim o'zgarishiga moslashishga harakat qilmoqdalar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, kelgusi o'n yilliklarda oziq-ovqatga bo'lgan talab 50 foizga oshishi kutilayotgan bo'lsa ham, iqlim o'zgarishi sababli global hosildorlik yangi agrotexnologiyalarsiz 30 foizga kamayishi mumkin.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi issiqxona gazlari emissiyasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. 2017 yilda u mamlakatdagi umumiy issiqxona gazlari emissiyasining 17,8 foizini, ya'ni 33,7 million tonna CO<sub>2</sub> ekvivalentini tashkil etadi.

Metan emissiyasi (qishloq xo'jaligidagi umumiy emissiyaning 62,7 foizi) issiqxona gazlari ekvivalenti asosida o'lchanadigan azot oksidi emissiyasidan (37,3 foiz) sezilarli darajada yuqori. Qishloq xo'jaligi sohasining emissiyasi quyidagilardan kelib chiqadi:

chorvachilik va sholi etishtirish fermentatsiyasidan metan emissiyasi; go'ng bilan bog'liq faoliyatni boshqarishda metan va azot oksidi emissiyasi;

• azotli o'g'itlar va go'ngni kiritish natijasida boshqariladigan tuproqlardan azot oksidi emissiyasi, o'simlik qoldiqlarining parchalanishi va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi.

2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi mamlakatning irrigatsiya va suv xo'jaligiga bog'liqligi yuqori bo'lgan yo'nalishlarda iqlim o'zgarishiga moslashitirish chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash; davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish, ilm-fan, ta'lim, qishloq xo'jaligida axborot va maslahat

xizmatlari tizimini rivojlantirish, qishloqlarni rivojlantirish, tarmoq statistikasining shaffof tizimini rivojlantirish zarur bo‘lmoqda.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlarini yumshatish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun barvaqt kiritiladigan va keng qamrovli investitsiyalarning asosiligi hamda iqlimning salbiy oqibatlariga moslashuvchanligi bo‘yicha xalqaro moliya institutlaridan 2023-2027 yillarda 300 million dollar grant mablag‘lari jalb etilishi rejalashtirilgan.

Grant mablag‘larini yaratadigan donorlar bular yashil iqlim jamg‘arma, Yevropa Ittifoqi, Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti FAO, Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturi, Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti, Global ekologik jamg‘arma, Qishloq xo‘jaligi taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan grant mablag‘larini ajratish bo‘yicha kelishuvga erishilgan.

## **XULOSA**

Xulosa o‘rnida aytganda, O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va iqlim o‘zgarishiga moslashishni milliy va mahalliy miqyoslarda rejalashtirish va byudjetlashtirish jarayonlariga integratsiya qilish uchun institutsional va texnik salohiyatni kuchaytirishga qaratilgan Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha strategiya va Milliy moslashish rejasi hali ishlab chiqilmagan va tasdiqlanmagan.

Iqlim o‘zgarishi va atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo‘lib, u umummilliy boylik hisoblanadi hamda davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Bunday sharoitda yoshlarning atmosfera havosini yaxshilash va himoya qilish texnologiyalarini chuqur o‘rganishi, ularni amaliyotga tatbiq qilishi bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi hozirgi global va mintaqaviy ekologik tahdidlar sharoitida o‘ta muhim hisoblanadi.

Shuningdek, ta’sirni yumshatish va unga moslashish choralari orqali uglerod emissiyasini sof nolga teng maqsadlarga erishishning ustuvor yo‘nalishlari va vositalarini yo‘naltirish maqsadida Hukumat 2050 yilga mo‘ljallangan "karbonsizlantirish" (qazib olinadigan yoqilg‘idan voz kechish) bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani taqdim qilishi kerak.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish

chora-tadbirlari

to'g'risidagi

PQ-171-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/6479134>.

2. Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlili milliy hisoboti. 2023 yil. Toshkent – 97 bet.

3. Before it's here, it's on the Bloomberg Terminal LEARN MORE. 2021 u.

4. 'M. Oppenheimer. Oppenheimer' offers a timely warning on the dangers. The Times of Israel. 8.08.2023 y.

5. Xalq so'zi gazetasi. Iqlim o'zgarishining oldini olish uchun nimalar qilish kerak. 15.05.2020 yil.